Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar	2070
Aipova Iroda Ikramovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashtirishning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	



O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI



Raximova Dilfuza Mirzakasimovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Turizm va mehmonxona biznesi”
kafedra katta o'qituvchisi
ORCID:0000-0002-2789-5372

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda mavjud hududiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Mamlakatimizdagi boy tarixiy-madaniy meros, aziz avliyolar maqbaralari va ziyoratgohlar asosida ziyorat turizmining salohiyati chuqur tahlil qilingan. Muallif hududlar kesimida madaniy meros obyektlarining joylashuvi, mavjud infratuzilmaning holati, xorijiy va mahalliy ziyoratchilar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, yangi ziyorat yo'nalishlarini shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni keltiradi. Shuningdek, ilmiy-ziyorat turizmi, diniy-ma'naviy marshrutlar va boshqa konfessiyalar ziyorat obyektlarining rivoji orqali sohaga xalqaro e'tiborni kuchaytirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada ziyorat turizmining iqtisodiy, ma'naviy va madaniy jihatdan yurtimiz rivojiga qo'shayotgan hissasi yoritilib, sohani yanada taraqqiy ettirishga doir aniq takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, hududiy resurslar, madaniy meros, diniy ziyoratgohlar, turizm infratuzilmasi, ilmiy ziyorat, ziyorat marshrutlari, halol turizm, tarixiy obidalar, turistik salohiyat, ziyoratchilar, investitsiyalar, turizm obyektlari, allomalar maqbarasi, ziyorat dasturlari, mahalliy sayyohlik yo'nalishlari, marketing strategiyasi.

Abstract: This article explores the effective and rational use of regional resources in the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan. The rich historical and cultural heritage of the country, the mausoleums of revered saints, and religious pilgrimage sites are thoroughly analyzed as the foundation for enhancing the potential of pilgrimage tourism. The author presents an overview of the distribution of cultural heritage sites across regions, the state of existing infrastructure, conditions created for both foreign and local pilgrims, and offers recommendations for establishing new pilgrimage routes. Additionally, the article discusses the role of scientific pilgrimage tourism, spiritual-religious itineraries, and the development of pilgrimage sites related to other religious confessions in attracting international attention to the sector. The economic, spiritual, and cultural contributions of pilgrimage tourism to national development are highlighted, and concrete proposals for further advancement of the sector are provided.

Key words: pilgrimage tourism, regional resources, cultural heritage, religious pilgrimage sites, tourism infrastructure, scientific pilgrimage, pilgrimage routes, halal tourism, historical monuments, tourism potential, pilgrims, investments, tourism facilities, mausoleums of scholars, pilgrimage programs, local tourism directions, marketing strategy.



Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы рационального и эффективного использования имеющихся региональных ресурсов в развитии паломнического туризма в Узбекистане. Глубоко проанализирован потенциал паломнического туризма на основе богатого историко-культурного наследия страны, мавзолеев святых и религиозных мест паломничества. Автор раскрывает распределение объектов культурного наследия по регионам, состояние существующей инфраструктуры, условия, создаваемые для иностранных и местных паломников, а также предлагает рекомендации по формированию новых паломнических маршрутов. Также в статье рассматриваются вопросы развития научного паломничества, духовно-религиозных маршрутов и объектов паломничества других конфессий с целью привлечения международного внимания к отрасли. Освещается вклад паломнического туризма в экономическое, духовное и культурное развитие страны, приводятся конкретные предложения по дальнейшему развитию отрасли.

Ключевые слова: паломнический туризм, региональные ресурсы, культурное наследие, религиозные места паломничества, туристическая инфраструктура, научное паломничество, паломнические маршруты, халяль-туризм, исторические памятники, туристический потенциал, паломники, инвестиции, туристические объекты, мавзолеи учёных, паломнические программы, местные туристические направления, маркетинговая стратегия.

KIRISH

Ziyorat turizmi O'zbekistonda turizm sohasining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbek xalqining boy tarixiy, madaniy va diniy merosi, islom olamidagi yirik allomalarning vatani bo'lgani, hududda qadimiy maqbaralar, ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar mavjudligi bu sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Hududiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, mahalliy infratuzilmani yaxshilash, marketing strategiyalarini takomillashtirish orqali O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojiga turtki berishi mumkin.

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, qator huquqiy va strategik hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son «Ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 120-son «Muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, masjid va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida», 2021-yil 24-fevraldagi 100-son «Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida», 2023-yil 27-iyuldagi «Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-238-son, 2023-yil 26-apreldagi «Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-135-son, qarorlari, shu bilan birgalikda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda yurtimizda ziyorat turizmini ma'lum darajada rivojlanishiga xizmat qiladi[1].

Darhaqiqat, O'zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda diniy turizm, ya'ni aziz qadamjolarni ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa, jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G'ijduvoni, Imom al-Buxariy, Mahtumi A'zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go'zal ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shartsharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisolanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Buning uchun Samarqand shahri aeroportini jahon andozalariga yarasha bo'lishi, masalaning asosiy yechimi hisoblanadi. Mustaqallik yillarida tarixiy qadamjolarga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Buyuk ajdodlarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor berganligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd. Musulmon dunyosini o'ziga tortmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Xususan, Janubi – Sharqiy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jalb etish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumlashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar



yaratish, yo'l qurish, transport imkoniyatlarni o'rganish maqsadida muvofiq deb hisoblaymiz. Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o'nlab, yuzlab tarixiy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat etish marshrutlari aniq tuzilmagan. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obyektlariga aylantirish mumkin. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, diniy turizm hamma vaqt sayohatning eng aktiv turi bo'lib kelgan. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanib, kelajakda diniy turizmni rivojlantirishga yanada e'tiborni yanada kuchaytirish ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi[2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari hali hanuz yetarlicha chuqur va tizimli o'rganilmagan. Mamlakatimizda boy madaniy-tarixiy meros va diniy obidalar mavjud bo'lishiga qaramay, ziyorat turizmini zamonaviy talablarga mos tarzda rivojlantirish, uning infratuzilmasini yaxshilash, marketing va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish borasida hali ko'plab imkoniyatlar mavjud. Mazkur muammoning yetarlicha ilmiy asosda ishlab chiqilmaganligi va amaliyotda to'liq qo'llanilmaganligi dissertatsiya mavzusini tanlash, uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilash zaruratini keltirib chiqardi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'tgan asrning 70-80 yillarida ziyorat turizmi, asosan, marosimlarni amalga oshirish shaklida namoyon bo'lib, u turizmdan ko'proq diniy amalni bajarishga yo'naltirilgan [3].

1990-yillarda ziyorat turizmiga yangi g'oyalar va tushunchalar kiritildi, jumladan:

“diniy sayohatchi sifatida ziyoratchi” dan dam oluvchi sifatida “sayyoh”gacha bo'lgan sayohatning davomi [4];

ziyosat va turizmning diniy hamda dunyoviy bilimlarni kengaytirishga xizmat qilishi [5];

ziyosat va turizmning diniy hamda dunyoviy bilimlarni kengaytirishga xizmat qilishi [6];

ziyosat va turizm o'rtasidagi murakkab munosabatlar hamda sayyoh va ziyoratchi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar [7];

din, ziyorat va turizm o'rtasidagi munosabatlar [8].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab sayyohlar turli xil tajribalarni, jumladan ma'rifat, bilim, ma'naviy va jismoniy farovonlikni yaxshilash va adrenalinni oshirishga intilishadi.

Hozirgi adabiyotlar ziyoratni diniy va dunyoviy asoslarga ega bo'lgan yaxlit hodisa sifatida tushunadi [9], bu ham diniy, ham dunyoviy kontekstdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan saytlarni o'z ichiga oladi.

Ziyorat turizmi ko'pchilik mualliflar tomonidan diniy turizmning bir turi sifatida qaraladi. O.A. Freyebiye ta'kidlaganidek, diniy turizm maqsad ziyorat qilish bo'lgani bilan, yondashuv sayohatni o'z ichiga oladi.

Diniy turizm ostida A.V. Babkin [10] odatdagi muhitdan tashqarida bo'lgan muqaddas joylar va diniy markazlarga boradigan sayyohlarning xizmatlarini ko'rsatish va ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatni tushunadi. Ziyorat turizmi, bu muallif ta'rifiga ko'ra, turli din vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari yig'indisidir. Ziyorat deganda mo'minlarning muqaddas joylarga ta'zim qilish istagi tushuniladi.

M.A. Vinokurov ziyorat turizmini biroz kengroq ta'riflaydi. Uning fikricha, diniy (ziyosat) turizmi muqaddas joylarga, cherkov yodgorliklari va muqaddas qadamjolarlarga jamlangan markazlarga tashrif buyurishni maqsad qilgan. Turizmning bu turi muhim diniy marosimlarda ishtirok etish uchun sayohatlar, diniy yodgorliklar, turli dinlar tarixi va madaniyati bilan tanishish uchun ma'rifiy sayohatlar, shuningdek, diniy masalalarga oid mutaxassislarning ilmiy sayohatlarini o'z ichiga oladi.

K.A. Mazin [11] “turist” va “ziyoratchi” tushunchalarini, shunga mos ravishda “turizm” va “ziyosat” tushunchalarini aniqlashni nomaqbul deb hisoblaydi. Turli konfessiya vakillari ham ziyoratning turizm sifatida tasniflanishiga qarshi.

Izohli lug'atlarda “ziyosat” tushunchasiga ko'p hollarda sayohat, ziyoratchilarni muqaddas joylarga sayr qilish tushuniladi. Shu bilan birga, bir qator tushuntirish lug'atlarida, masalan, D.N. Ushakova [12] “ziyosat” tushunchasi boshqa ma'noga ega. Xususan, bu sayohat qilish, ba'zi diqqatga sazovor joylar bilan tanishish, shuningdek, mashhur odamlar bilan tanishish uchun biror joyga borishni anglatadi. Shubhasiz, bu holatda bunday sayohatlar diniy maqsadlar bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin.

V.S. Senin o'zining “Xalqaro turizmni tashkil etish” darsligida diniy turizm uchta shaklga ega, deb hisoblaydi:

1) ziyorat qilish maqsadida sayohatlar;

2) diniy mavzudagi ekskursiya sayohatlari;

3) ziyoratchilar va sayyohlarni birlashtirgan ixtisoslashtirilgan turlar [13].

Yuqorida berilgan ta'riflarning nazariy jihatlarni ko'rib chiqib, tadqiqotchi ishda ziyorat turizmiga ta'rifini va yondashuvini keltirib o'tgan. Bunga ko'ra “Ziyorat turizmi bu insonlarni sayohat davomida ruhiy o'sish, o'z-o'zini anglash va ichki olamini boyitish xotirjamlikka erishish jarayoni hisoblanib, ziyorat nafaqat diniy, balki



shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida tushuntiriladi, hamda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishiga olib keladi". Ziyorat turizmida sayyoh masjidlar, avliyolar va ulamolar maqbaralariga, muqaddas qadamjolariga, shuningdek tabiat resurslari bilan bog'liq bo'lgan joylarga sharsharalar, buloqlar, ko'llar, daryolar kabilar ziyorat turizmi destinatsiyasi sifatida keltiriladi.

Ziyorat turizmi ko'pchilik mualliflar tomonidan diniy turizmning bir turi sifatida qoraladi.

Ziyorat turizmini tashkil qilishda ziyoratchi turistlarning maqsadlaridan kelib chiqqan holda ekskursiyalar tuziladi. Bu ziyorat turizmi ekskursiyalari uzoq yoki qisqa vaqtga mo'ljallangan, bir yoki bir necha kunlik turistik dasturlarni o'z ichiga olishi mumkin. 2-jadvalda bunday sayohatlarning bir nechta turlari ko'rsatilgan (1-jadval):

1-jadval. Ziyoratchi-turistlarining maqsadlaridan kelib chiqqan holda, ziyorat turizmi ko'rinishlari¹.

Ziyoratchi-turistlarining turi	Maqsadi	Kutilayotgan natija
Asl ziyoratchilar	Ularning maqsadi faqat ziyoratni amalga oshirish bo'ladi. Masalan, Haj amallarini amalga oshiruvchilarga ushbu ta'rif muvofiq keladi.	Diniy majburiyatni bajarish, ruhiy poklanish.
Ziyorat turizmining salmoqli ulushiga ega ziyoratchilar	Bu yerda sayohatchilar faqat ziyorat qilmay, balki tarixiy joylarga ham borishi nazarda tutiladi. Masalan, Buxoroda so'fiylarning qadamjolarini ziyorat qilish bilan birga Ark, Setorai Moxi Xosa yoki boshqa tarixiy obyektlarni tomosha qilish	Shaxsiy o'sish va rivojlanish, ruhiy poklanish.
Ziyorat komponenti sezilarli, ammo maqsad sayohatning boshqa turlari bo'lgan ziyoratchilar	Masalan, ekstrimal turizm orqali uzoq qishloqlardagi masjidlarni ziyorat qilish.	Shaxsiy o'sish, dunyoqarashni kengaytirish.

Ziyoratchi-turistlarining maqsadlaridan kelib chiqqan holda asl ziyoratchilar, ziyorat turizmining salmoqli ulushiga ega ziyoratchilar va ziyorat komponenti sezilarli, ammo maqsad sayohatning boshqa turlari bo'lgan ziyoratchilar maqsad va kutilayotgan natija bo'yicha farqlanadigan ziyoratchi-turistlar kategoriyalashuvi taklif etilgan, ya'ni ziyoratchilarning sayohat maqsadi va ulardan kutilayotgan natijalar asosida ularni: diniy e'tiqod asosida ziyorat qiluvchilar, ziyorat turizmini asosiy yo'nalish sifatida tanlovchilarga aylanganlar hamda ziyorat komponenti mavjud bo'lsa-da, sayohatning boshqa — madaniy, tarixiy yoki dam olish kabi maqsadlari ustuvor bo'lgan aralash turdagi sayyohlar sifatida guruhlash orqali ziyorat turizmini tahlil qilishning yanada chuqurlashtirilgan uslubi shakllantirilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda madaniy meros va ziyorat turizmi obyektlari quyidagicha taqsimlangan: Madaniy meros obyektlari: 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda jami 8 210 ta madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, shundan 7 827 tasi davlat mulki va 383 tasi xususiy mulk hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4 oktyabr 2019-yildagi 846-sonli qaror qabul qilindi[14]. Bunga ko'ra Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari jami soni 8 210 ta. Shundan: arxeologiya yodgorliklari soni 4 748 ta, arxitektura yodgorliklari soni 2 252 ta, monumental san'at yodgorliklari 678 ta, diqqatga sazovor joylar 532 tani tashkil etadi (1-rasm).

1 Jadval muallif ishlanmasi



1-rasm. O'zbekiston hududlari kesimida moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari soni [15]

Yuqorida keltirilgan jadvalda O'zbekiston hududlarida moddiy madaniy meroslar soni keltirib o'tilgan. Bunga ko'ra Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida respublikaning eng ko'p tarixiy madaniy me'ros obyektlari joylashganligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimizga kelayotgan sayyohlar uchun bu hududlarga klassik turlar tashkil qilingan. Tadqiqot ishimizning keying rejalarida Toshkent shahar hududiga turistk salohiyati hamda madaniy meros obyektlari resurslaridan kelib chiqib, jozibador ziyorat yo'nalishida turistik marshrutlar ishlab chiqish hisoblanadi.

O'zbekistonni islom dunyosidagi eng katta ziyorat markazlaridan biriga aylantirish maqsadida ko'plam tadbirlar, xalqaro forum o'tkazilib kelinmoqda. Shuningdek, "Ko'hna tarix durdonalari" milliy dasturi doirasida turistlarni o'ziga jalb qiladigan madaniy meros obyektlari sonini 800 tadan 2,5 mingga yetkazish rejalashtirilgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonda madaniy meros va ziyorat turizmi obyektlarining boyligini va ularning rivojlanishiga qaratilgan sa'y-harakatlarni aks ettiradi. Ziyorat turizmini rivojlantirishga doir tadbirlarga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

"Ziyorat – turizm: tarix, faktlar, shaxslar" nomli xalqaro onlayn seminarda O'zbekistonda ziyorat turizmining dolzarb muammolari va ahamiyati" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman


Imom al-Buxoriy xalqaro hadis tanlovi

"Islom xattotligi" tanlovlari doirasida qator madaniy tadbirlar

Yurtimizda turizm sohasini rivojlantirishda bevosita ko'plab omillar ta'sir qiladi. Bu omillardan biri bu sohada malakali kadrlarni mavjudligi hisoblanadi. Jahon turizm bozorida xar 7-10 ta sayyohga 1 ta malakali mutaxassis kerak bo'lishini inobatga olsak, aynan bizni tadqiqot mavzusi bo'yicha xam ziyorat turizmi doirasida xizmat ko'rsatuvchi soha egalari professional bo'lsa, soha muvaffaqiyatli rivojlanishiga sabab bo'ladi. 35 ta oliy ta'lim muassasalarida talabalar turizm va mehmonxona xo'jaligi sohasida tahsil olib kelmoqda. Kadrlarni maqsadli tayyorlash doirasida, 7 ta universitetning gid tayyorlash kurslarining 30% xarajati Turizm qo'mitasi tomonidan qoplab beriladi. Buning uchun Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 2.8 mlrd so'm ajratildi [16].

Turizmni qo'mitasi tomonidan Toshkent shahrida ziyorat turizmini rivojlantirish, ro'yxatga olingan 15 ta diniy muassasaga tashrif xaritalari ishlab chiqildi. Indoneziya va Malayziya sayyohlik agentliklari va mehmonlariga mo'ljallangan halol ovqatlanish joylari, milliy oshxonalar, restoranlar, oilaviy tashrif joylari xaritasi tayyorlandi.

O'zbekistonda bugungi kunda jami ziyoratgohlar 1257 tani tashkil etadi. Shundan 1183 tasi Islomiy, 57 tasi xristian provaslav, 8 ta xristian Rim katolik va 9 ta budda ziyoratgohlari mavjud. (2-rasm)



2-rasm. O'zbekistondagi ziyoratgohlar soni.



O'zbekistonda diniy 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2316 ta tashkilot faoliyat olib bormoqda. Bular 2125 tasi Islomiy tashkilotlar, 2096 tasi masjidlar, 191 tasi noislomiy (boshqa dinga mansub) tashkilotlar, 8 ta yaxudiy ibodatxonasi, 174 ta xristian cherkovi, 6 ta bahoii jamoalari, 1 ta budda ibodatxonasi, 1 ta krishnani anglash jamiyati va 1 ta O'zbekiston bibliya jamiyati yurtimizda faoliyat olib bormoqda. Bu ma'lumotlarni keltirib o'tish shudan dalolat beradiki, O'zbekistonda din erkinligi, turli millat va elatlarni o'zaro bir - biriga hurmatdan dalolatdir. Bu qonuniy ham kuchga ega. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida 699-sonli 05.07.2021-yildagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilingan. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 6-bob va 35-moddadan iborat [17]. O'zbekistonda yuqorida tahlil qilganimizdek 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritir ekan va ziyoratgohlar soni ham nafaqat islomiy balki boshqa din vakillari ziyoratgohlarini o'z ichiga olar ekan, mamlakatimizga biz turli din vakillarini ziyorat maqsadida turistik dasturlar yaratib, takliflar ishlab chiqib, targ'ibot tashviqot ishlarini amalga oshirib, ziyotratchi sayyohlar sonini oshirishimiz mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki yurtimizda turli din vakillarini ziyorat turizm maqsadida mavjud obyektlarni inobatga olib, jalb qilishga salohiyat mavjud.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotiga ko'ra, turizmni rivojlantirish maqsadida 2024 yilda bir qator ishlar amalga oshirildi. Shu doirada davlat byudjetidan turizm sohasi uchun jami 117 milliard so'm ajratilgani ma'lum qilindi.

Bu mablag'lar tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirildi. Jumladan, xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun 50 milliard so'm, yangi dor yo'llar qurilishi va jihozlanishi xarajatlarining bir qismini qoplashga 10 milliard so'm, yangi mehmonxonalar qurilishi va jihozlanishi xarajatlari uchun 4 milliard so'm, UNWTO shafeligidagi Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi qurilishiga 10 milliard so'm va boshqa xarajatlar uchun 43 milliard so'm ajratilgan.

Shuningdek, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida turizm ob'ektlari qurilishi va rekonstruksiyasiga 322 milliard so'm, yuqori turizm salohiyatiga ega 20 ta tumanda infratuzilma muammolarini bartaraf etish uchun 80 milliard so'm, jami 402 milliard so'm mablag' ajratildi. Yil yakunida amalga oshirilgan ishlar qiymati 342 milliard so'mni tashkil qilib, 366 milliard so'm (91 foiz) mablag' o'zlashtirildi.

2024 yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijlik turistlar soni 10,28 million nafarga yetdi. Bu 2023 yildagi 6,63 million nafarga nisbatan 3,65 millionga yoki 55 foizga ko'pdir. Shuningdek, ichki turizmda ishtirok etganlar soni 22,67 million nafarni tashkil qildi, bu esa 2023 yilga nisbatan 2 million nafarga yoki 10 foizga o'sishni anglatadi.

Xorijlik sayyohlar hisobiga 2024 yilda turizm xizmatlari eksporti 3 milliard 489 million AQSH dollariga yetdi. 2023 yilda bu ko'rsatkich 2 milliard 143 million dollarni tashkil qilgan. Ya'ni, 1 milliard 346 million dollar yoki 62 foiz o'sish kuzatildi.

2024-yilda yurtimizda 627 ta yangi joylashtirish vositalari (jami 17 304 o'rin), shu jumladan, 80 ta mehmonxona, 215 ta xostel, 294 ta oilaviy mehmon uylari, 2 ta sanatoriy va sog'lomlashtirish markazlari tashkil etildi. Shu bilan joylashtirish vositalari umumiy soni 6 153 taga, o'rinlar soni 161,4 mingtaga yetdi.

Shuningdek, yanada qulay xizmatlar uchun 961 ta yangi turizm tashkiloti va turagentliklar ish boshladi, ularning umumiy soni 3 686 taga yetdi. Shu bilan birga, mamlakatimizda 3 200 nafar gid-ekskursvodlar faoliyat yuritmoqda.

2024-yilda 1 010 ta sanitariya-gigiyena shoxobchasining holati yaxshilandi: 512 tasi yangidan qurildi, 498 tasi ta'mirlandi. Shuningdek, Andijon viloyati Xonobod shahri va Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrida 4 ta turizm axborot markazi ish boshladi[18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, O'zbekistonda ziyorat turizm salohiyati yuqori hisoblanadi. Biz makro darajada xalqaro miqyosda xorijiy sayyohlarni jalb qilish imkoniyatini oshirishimiz mumkin. O'zbekistonning turli hududlarida xalqaro darajada sayyohlarni jalb qiladigan ziyoratgohlar mavjud. Chunki tariximizga nazar tashlasak yurtimizda yashab islom sivilizatsiyasiga o'z xissasini qo'shgan ko'plab ulamolarni bir qator islomiy ilmlarni targ'ibotchisi bo'lishgan. Bugungu kunga kelib tarixda yurtimiz shayx ulomalarining boy me'rosini o'rganishga, maqbaralarini ziyorat qilishga keluvchi maqsadli segment mavjud.

O'zbekistonda yangi ziyorat turizm marshrutlari va sayohat dasturlari ishlab chiqilishga doir quyidagi taklif va tavsiyalar:

yo'q bo'lib ketayotgan ziyorat joylarni tiklash, ularni ahamiyatini oshirish;

viloyatlar, mintaqaviy hududlar bo'yicha ziyorat turizmi marshruti, obzorli ekskursiya ko'rinishida ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida ziyorat turizm yo'nalishlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Chunki xar bir hududning o'ziga xos ziyorat salohiyatiga ega jihatlari mavjud;

eko-ziyorat turlari: Tabarruk joylarga ziyorat qilish bilan birga, o'zgacha tabiat manzaralari va ekologik yo'nalishlar bo'yicha ham sayohatlar tashkil etish mumkin. Masalan, Chortoq, Nurata va boshqa tabiiy hududlarda qishloq turizmi bilan birlashtirilgan diniy sayohatlar ishlab chiqish;



diniy-tarixiy, qadimiy savdo yo'llari bo'ylab, "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab ziyorat turizm marshrutlari ishlab chiqish;

kelayotgan segmentga qarab, maqsadli auditoriyaga mos yakka va jamoaviy ziyorat sayyohlik dasturlarini ishlab chiqish;

qulay va faqat ziyoratgohlar uchun boriladigan mahalliy transport qatnovini yo'lga qo'yish;

ziyoratgohlarimizga press turlar, info turlar mutahassislar uchun, xalqaro blogerlar uchun bepul sayohatlat tashkil etish va shu bilan ziyoratgohlarni targ'ibotiga turistlarni chaqirishga erishish, ko'plab auditoriyani qamrab olish;

Haj va Umra safaridan oldin Abu Iso at-Termiziy maqbarasi va Imom al-Buxoriy majmuasiga sayohat dasturlarini ishlab chiqish;

har bir ziyorat qilish mumkin joylarga oylaviy chiqishga moljallangan turlar yaratish;

masjid va madrasalar bilan tanishtiruv turlarini tashkillashtirish;

chekka hududlardagi o'rganilmagan obyektlarni ko'paytrish va ziyoratgohlarga marshrutlar ishlab chiqish; halol turizm infratuzilmasini rivojlantirish

yoshlarga mo'ljallangan tematik ziyorat turizm marshrutlarini ishlab chiqish. Marshrutlar zamonaviy qulaylik va texnologiyalarni qo'lagan xolda ishlab chiqish;

"Buyuk allomalar yo'li" mashhur islom allomalari va olimlari maqbaralarini birlashtirgan ziyorat turizm marshrutini ishlab chiqish;

online sayohatlarni ham targ'ib qilish;

viloyat qadamjolari: xar bir viloyatdagi kam o'rganilgan ziyorat maskanlarini rivojlantirish.

O'zbekistondagi turli din vakillariga mansub ziyoratgohlar va madaniy obidalarini o'z ichiga oluvchi marshrutlar ishlab chiqish. Manzillar: Toshkent: Hazrati Imom majmuasi, Rim-katolik cherkovi. Samarqand: Xo'ja Doniyor maqbarasi (uch din vakillarining hurmati bilan mashhur). Farg'ona vodiysi: Marg'ilondagi masjidlar va yahudiylar ibodatxonasi. Buxoro: Minorai Kalon va yahudiylar sinagogasi. Xususiyati: Turli dinlarning bir-biriga uyg'unligini ko'rsatish;

"Ibn Sino va Islom olamining buyuk mutafakkirlari" marshruti: Bu marshrut O'zbekistonda Ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy va boshqa ilm-fan va islom olamining buyuk shaxslarining qabrlariga ziyorat qilishni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Termiz va Xiva shaharlarida joylashgan tarixiy yodgorliklar bilan boyitilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.02.2021 y., 06/21/6165/0104-son; (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.02.2021 y., 09/21/100/0169-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022 y., 06/22/52/0029-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.02.2022 y., 07/22/135/0148-son. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // Yangi O'zbekiston. 2022 yil, 1 fevral. – № 22 (544).
2. Mintaqaviy turizm [Matn] :o'quv qo'llanma / G.R. Xidirova, F.M. Raxmatullayeva. - Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020.
3. Turner, V. and Turner, E. (1978), Image and Pilgrimage in Christian Culture, Colombia University Press, New York, NY.
4. Smith, V.L. (1992), "Introduction: the quest in guest", Annals of Tourism Research, Vol. 19 No. 1, pp. 1-17.
5. Lennon, J. and Foley, M. (2000), Dark Tourism the Attraction of Death and Disaster, Cengage learning EMEA, London.
6. Cohen, E. (1998), "Tourism and religion: a comparative perspective", Pacific Tourism Review, Vol. 2, pp. 1-10.
7. Cohen, E. (1992b), "Pilgrimage and tourism: convergence and divergence", in Morinis, A. (Ed.), Sacred Journeys: The Anthropology of Pilgrimage, Greenwood Press, New York, NY, pp. 47-61.
8. Timothy, D.J. and Olsen, D.H. (Eds) (2006), Tourism, Religion and Spiritual Journeys, Routledge, London and New York, NY.
9. Collins-Kreiner, N. (2010), "Researching pilgrimage: continuity and transformations", Annals of Tourism Research, Vol. 37 No. 2, pp. 440-456.
10. Brandt I.G. Palomnichestvo, religiozniy turizm s tochki zreniya turindustrii [Pilgrimage, Religious Tourism from the Point of View of the Tourism Industry]. Pravoslavnoe palomnichestvo: traditsii i sovremennost. 28–29 noyabrya 2005 g. [Orthodox Pilgrimage: Traditions and the Present. The collection of materials of the Second all-Church conference, November 28–29, 2005]. Moscow, 2009. Pp. 37–41.
11. Мазин К. А. Паломничество и туризм: сравнение сквозь призму тысячелетий // Современные проблемы сервиса и туризма. 2009. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/palomnichestvo-i-turizm-sravnienie-skvoz-prizmu-tysyacheletiy> (дата обращения: 17.12.2022).
12. Егоров Валерий Кузьмич Феномен туризма // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2009. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fenomen-turizma> (дата обращения: 17.12.2022).
13. <https://uchebnik.biz/book/139-organizaciya-mezhdunarodnogo-turizma/>
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4 oktyabr 2019yildagi 846-sonli qarori
15. <https://davlat.uz/oz/madaniymeros>
16. Turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida
17. O'zbekiston Respublikasining 05.07.2021-yildagi O'RQ-699-son Qonuni.
18. https://uza.uz/oz/posts/2024-yilda-davlat-byudjetidan-turizm-sohasi-uchun-483-milliard-som-ajratildi_708432



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>